

**BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA YANGI ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Abdazova Zebo Xo‘rozovna**

*Jizzax viloyati Zomin Abu Ali ibn Sino nomli Tibbiyot texnikumi biologiya  
o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada respublika umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitilishini nazorat qilish, ma’lum shart-sharoitlar yaratish, maktab o‘quvchilariga yangi bilimlarni berish, olingan yangi bilimlar asosida ko‘nikmalarini hosil qilish, shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishslash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishslash, kabi noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so’zlar:**fanlarining o‘qitilishi, bilish faoliyati, axborot texnologiyalarining dars jarayonidagi vazifalari, texnologiya mahsulotlari, zamonaviy texnologiyalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshqa fanlarga berilayotgani kabi tabiiy fanlarga ham e’tibor juda yuqori. Respublika umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitilishini nazorat qilish va shart-sharoitlar yaratish juda muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘quvchilar, talabalar, tinglovchilar aqliy ta’limini rivojlantirish uchun ta’lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo‘lishi, bilimning sistemali va izchil bo‘lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda [1].

Har bir dars o‘quvchi uchun yangi axborot hisoblanadi. Ayniqsa, yangi o‘quv materiali orqali o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy ta’lim sifatini ta’minlovchi omildir. O‘quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko‘nikmalarini shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishslash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishslash, o‘yin mashqlari va rolli o‘yinlar kabi noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Mana shularni hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko’plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda [2]. O‘quv jarayonining markazida o‘quvchi shaxsi va qadri, ma’naviyati turar ekan, har bir o‘qituvchi bu jarayonni samarali va qiziqarli qilib tashkil qila olishi kerak. Shuni e’tiborda tutish kerakki, shaxsga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining o‘quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talab-istiklarini ro‘yobga chiqaruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqilligi va erkinligini ta’min etish, qiziqishlari asosida ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish, o‘z qiziqishlari orqali qo‘srimcha ta’lim olishga yo’llash, o‘z-o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi [1;3]. Biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida darslarda turli o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar vositasida darslarni tashkil etish

o'quvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini rivojlantiruvchi usullardan biridir. O'yinlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish qobiliyatini oshiradi, tez javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi, ziyrakligini orttiradi. O'yin darslari o'qitishning faol shakllaridan biridir. O'yin darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarini orttirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir [3].

Biologiyani o'qitishning eng samarali usullaridan biri axborot texnalogiyalaridan foydalanishdir. Bularning vazifalari: Ta'limi vazifasi –bu o'r ganilayotgan mavzuni tushunchalar va ularning izohlari jadvallar ,diagramma ,asosiy qo'shimcha materiallar yordamida tushunishiga yordam beradi. Ko'rgazmalilik vazifasi –animatsiyalar o'quvchilar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkonini mavjud . Nazorat vazifasi – o'quvchining qay darajada o'zlashtirgani, baholash tizimi haqqoniyligini bo'lishiga zamin yaratadi. Rivojlantiruvchi vazifasi –vazifalar qiyinlik darajisidagi tartibda qo'yilib o'quvchining bilmaganlarini izlab o'rganishiga o'tilgan mavzularni mustahkamlashga zamin yaratadi. Tarbiyaviy vazifasi –aqliy va o'quv ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Biologiyani o'qitishda quyidagi axborot texnalogiyalarini mahsulotlaridan foydalanish mumkun: 1. mavzuga doir taqdimot tayyorlash; 2. qiyinchilik darajasi turlicha bo'llgan topshiriqlar tayyorlash; 3. test savollari tuzish; 4. krossvord tayyorlash; Bugungi kundagi eng dolzarb muommolardan biri maktablarda axborot texnologiyalarini yetishmovchiligidan, laboratoriya jihozlari, kimyoiy moddalarinig yetishmovchiligidir. Hozirgi muommolardan biri darslarni tashkil etishda o'qituvchi didaktikadan ishlab chiqilgan ta'lim mazmunini o'qitish metodlari va vositalarning uzviyligik prinsipiiga amal qilish mavzulari rejada pedagogik texnologiyalarning qaysi turlarini foydalanishi o'quv yili boshida belgilash keraklidadir [2]. Axborot texnologiyalarining eng qulay tarafi hozir O'zbekistonda ham onlayn ta'lim rivojlanib bormoqda.Bu ta'lim tizimida axborot texnologiyalarning o'rni juda katta bo'lib bunda o'quvchi uydan chiqmagan holda darsni o'zlashtirishi lozim. O'qituvchi dars o'tishida ham o'quvchi darsni tushunishida ham yangi zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi juda muhimdir. O'qituvchilar axborot texnologiyalarini orqali taqdimot, video, jadval, tarqatma materiallar, multimedia tayyorlashlari va prezентatsiya vositalari yordamida o'quvchilarga yetkaza olishlari ularning pedagogik mahorati nechog'li yuqoriligidan dalolat beradi [2]. Xulosa qilib aytganda biologiya fanlarini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda muammolar mavzusida shunday fikrlar kelib chiqadiki, biologiya fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalarini birga olib borish o'quvchilarni o'zlashtirish salohiyatini yanada oshiradi. Biologiya tabiiy fanlar qatoriga kirgani sababli biologiya fanini yaxshi o'zlashtirishda tabiiy narsalardan foydalanish misol uchun ra'nodoshlar oilasi mavzusi o'tilayotgan bo'lsa ra'nodoshlar mavzusiga oid meva, gul, barg, poya, ildizlar asosida dars o'tilsa yanada samarali bo'ladi. Bundan ko'rinish

turibdiki o'quvchi kitobda o'qigan malumotni, slaydda ko'rgan malumotni, ishlagan testlarda ega bo'lgan tushuncha tabiiy o'z ko'zi bilan ko'rsa o'quvchida o'zlashtirish qobiliyati ikki hissa ortadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. J.O.Tolipova .Biologiya o'qitishda pedagogik texnologiyalar.Toshkent -2011y 2.  
<http://s:ziyo.uzcom> sayti 3. N.Nematova .Botanikani o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lif texnologiyasi Biologiyani o'qitishda yangi innovatsion yondashuv

4. N.M.Abdurahmonova. Biologiya fanini o‘qitishda innovatsion ta’limning afzalliklari va uning imkoniyatlari. 1-3 betlar. <https://kopilkaurokov.ru>  
5.N.Reyimbayeva. Biologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyati. <https://megaline.uz> 6. D.R.Iminova Biologiya darslarida o‘yinli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. 19-20 betlar. 7. <https://www.conferences.uz>